

hayotidan xavfsirab, Amir Temur davlatidan panoh topdi. Sohibqiron Jo'ji ulusida bo'layotgan voqealarni ziyraklik bilan kuzatib borardi. Chunki Shimoliy Xorazm va Oq O'rda Movarounnahrda chegaradosh edi. U Oltin O'rda xoni o'ziga tarafkash, tobe bo'lishini anchadan buyon orzu qilardi. To'xtamishning murojaati esa ayni muddao bo'ldi. To'xtamishning kelayotganini eshitgan paytda Temur Xorazmga hamda Mo'g'iliston (Sharqiy Turkiston) hukmdori amir Qamariddinga qarshi kurashga tayyorlanayotgan edi. Pirovardida Temur yurish rejasini to'xtatdi va shahzodani kutib olishga taniqli amir Tuman Temur O'zbekni yubordi. Urusxon To'xtamishga qarshi o'g'li Qutlug' Bug'a boshchiligidagi qo'shin yubordi. O'sha jangda Qutlug' Bug'a jarohatlanib, tezda vafot etdi. Harbiy ishlarda tajribasiz To'xtamish Urusxon lashkari tomonidan qattiq zarbaga uchradi va yana Temur huzuriga qaytib keldi. Ikki marta urushlarda mag'lubiyatga uchragan To'xtamishxon yana Temur saroyiga qochib keldi. Endi bu safar Sohibqironning o'zi jangga otlandi va qo'shinini Sirdaryodan o'tkazib, O'trorning bepoyon tekisligida qarorgoh ko'tardi. Urusxon qo'shini esa mavlono Sharofiddin Ali Yazdiyning ma'lumotiga ko'ra, O'trordan 24 farsax naridagi Oq O'rda markazi – Sig'noqda joylashgan edi. Deyarli uch oy bir-birlariga qarshilik ko'rsatmasdan ro'baro' turdilar. Har ikki sarkarda natijaga erisholmagach ortga qaytishdi. 1375- yilda Urusxonning o'g'li To'xtaqa va vafot etgach, Amir Temur To'xtamishxonni shu yerda qoldirib, o'zi Samarqandga qaytib ketdi. 1376-1377- yil qishida Temur o'zining katta amirlari (Tuman Temur O'zbek, Baxtihoji, O'rik Temur, G'iyosiddin Tarxon va Bangi Qovchin)ni To'xtamishga qo'shib, Sig'noqqa jo'natdi. Amirlar barcha rasm-rusumlarni ado etib, To'xtamish xon ko'tarilganini hammayoqqa ovoza etdilar<sup>50</sup>. Ko'rib turubsizki, To'xtamishxon o'z-o'zidan mamlakat taxtiga chiqmaganligini, albatda uning homiysi hisoblangan Amir Temur uning taxtga chiqishi uchun qo'lidan kelgan barcha ishni qilgan. Chig'atoylar shohdan maxsus imtizo olgan bo'lib, mollarini istagan joyda o'tlatishi, ekin-tekini qilishi, yozda va qishda ko'ngillari tusagan yerda yashashi mumkin. Ular shohga soliq to'lamaydi, chunki chig'atoylar harbiy safarbarlik e'lon qilinishi bilan urushda xizmat qilishga jo'naydi<sup>51</sup>. Chunki o'sha davrda Chig'atoylar O'rta Osiyo siyosiy hayotida muhim rol o'ynardi. Qo'shinning asosiy qismi chig'atoylardan bo'lgan, ya'ni asosiy otliq va piyoda askarlar o'lkadagi chig'atoyzodalardan tuzilgan. To'xtamishxon Oltin O'rda davlatini birlashtirgandan keyin, Xon endilikda Amir Temur bilan tengma teng aloqalar olib bora boshladi. Amir Temur ayonlari ichida ajoyib diplomatlar ko'p bo'lgan. Amir Temur To'xtamishxon huzuriga elchi qilib Shamsiddin Almoliqiyini Nizomiddin Shomiy shunday ta'riflaydi: "U ish ko'rgan, aqlli, xushyor, donishmand bir kishi edi. U borib shirinsuxanlik bilan ko'ngilga yoqar gaplarni aytib, so'zning ulanishiyu rivojiga rioya qilgan holda maqsadni ado etdi. Uning so'zlari podshoh va amirlar qalbiga ta'sir ko'rsatib (To'xtamishxon) sulh-u safoga moyil bo'ldi va Shamsiddin Almoliqiyini ezozlab, hurmat qilib qaytardi..."<sup>52</sup>. To'xtamish o'z hukmronligining dastlabki yillarida Temurga nomigagina bo'ysunar, qulay payt kelishi bilan mustaqil bo'lib, o'z homiysidan yuz o'girish niyatida edi. U Oltin O'rdaning O'zbekxon va Jonibekxon davridagi shuhratini ko'tarishni istardi. Ammo shuni esdan chiqarmaslik kerakki, Oltin O'rda davlati bosqinchilik natijasida begona yurtda

vujudga kelgan, aholisi etnik jihatdan g'oyat xilma-xil, iqtisodiyoti va madaniyati turlicha bo'lib, xo'jalik aloqalari bir-biriga chambarchas bog'lanmagan edi. Bulardan tashqari XIV asrning 80-yillarida Oltin O'rdaga chegaradosh davlatlar siyosiy hayotida katta o'zgarishlar bo'lib o'tdi. Uning shimolida Dmitriy Donskiy boshchiligidagi rus knyazliklari birlasha boshlagan, Movarounnahr esa Temur yangi bir qudratli saltanat tuzayotgan edi. Bu davlatlar Oltin O'rdadan farqli o'laroq mustahkam zamida, o'z xalqining tabiiy o'sishiga bog'liq ravishda rivojlanib borar edi. Keyinchalik, To'xtamishxon hokimiyati ancha mustahkamlangandan so'ng, o'z homiysi bo'lgan Amir Temurga to'g'ridan-to'g'ri qarshi chiqa boshladi. Amir Temurning dam-badam qilgan yurishlari qo'shinni takomillashtirishga va urush olib borishda yangi jangovar usullarni qo'llash imkonini yaratdi. 1391-yilda To'xtamish bilan Qunduzchada bo'lgan jangda u to'qnashuv oldidan qo'shinni mutlaq yangi usulda joylashtirdi. Bu jangda sahibqiron o'z qo'shinini yetti bo'lakka – qo'lga ajratdi. Jang oldidan qo'shin markaz, o'ng qo'l-burung'or va chap qo'l-juvung'or qanotlardan tarkib topgan. To'xtamishxon va Amir Temur o'rtasidagi nizo Yevropani Old va O'rta Osiyo bilan bog'lab turuvchi savdo yo'llarini egallashga bo'lgan sa'y – harakatlardan kelib chiqqan. Ana shunday yo'llarning biri Rus janubidan Qora va Qulzum (Kasbiy) dengizi sohillari bo'ylab, ikkinchisi Kasbiydan janubroqdagi Shom, Kichik Osiyo – Kavkazorti, Eron, Samarqand orqali o'tardi. Bizningcha, Temur va To'xtamish o'rtasida aloqa buzilishiga yana bir sabab bor. Xususan, To'xtamishxon Ozarbayjonga kirib, Temurdan 1379 – 1380 yilda Xorazmni zabt etgani uchun qasos olmoqchi bo'ldi. Biroq To'xtamishxon Ozarbayjonga bostirib kirishi bilan Xorazmni istilo qilgani uchun Temurdan qasos olmoqchi edi degan fikr bir taxmin, xolos. Chunki manbalarda bu haqda na bevosita, na bilvosita imo – ishora bor. Temurga nisbatan adovati bo'lgan Ibn Arabshox uning To'xtamish bilan urushida Oltin O'rda xoniga xiylagina xayrixohlik qiladi va qurolli to'qnashuv chiqishiga amir Husaynning o'ldirilishi sabab uyg'otdi, deb hisoblaydi. Sharq tarixi ixlosmandlardan biri Xammer amir Husaynning o'limi Temur va To'xtamish o'rtasida jang kelib chiqishiga sabab bo'ldi, deb ko'rsatadi. Balki bu ikkinchi darajali sababdir, lekin hech qachon bosh sabab bo'la olmaydi. Shomiy va Yazdiyning hikoya qilishicha, Temur To'xtamishxonga nisbatan o'zining ilgari o'rnatgan aloqalariga rioya qiladi, uning qo'shini bilan jang olib bormaslikka tirishadi. Shayx Ali Bahodir, Iki Temur, Usmon Abbos, ular ortidan esa o'g'li Mirzo Mironshoh boshchiligidagi bir necha tuman qo'shinlarini jo'natib, ularga: “Bizning To'xtamish bilan ahdomamiz bor va biz unga amal qilamiz, agar uning qo'shini o'zlarini jang olib borishdan tiysa, orqaga qaytinglar”, deb tayinlaydi. Lekin qo'shin jang maydoniga borgach, amir farmoni bilan ortga qaytadi. Buni To'xtamishxon ojizlik deb bilib oldga qarab qo'shinini undaydi. Urushda Amir Temur qo'shini qo'li baland keladi. Shundan so'ng xon qo'shini Darbandga chekinadi. Bu – ikki qo'shin o'rtasidagi dastlabki yirik jang edi. 1391-yil 6-aprelda Amir Temur Sarig'uzen daryosidan yetib bordi va otlarni o'sha yerda sug'ordi, so'ng askarlar bilan hordiq chiqardi. Shundan so'ng Abdurazzoq Samarqandiyning ma'lumot berishicha, Temur qo'shinlarini ko'prikdan o'tkazdi. Sahibqiron tobora Dashti Qipchoq ichkarisiga kirib borardi. 1391-yi 4-iyunda amir Yoyiq daryosidan o'tdi. Bu paytda To'xtamishxon o'ng va chap qanotlarni

to'plab, Qirqqo'l ( hozirgi Chelyabinskiy) da qarorgoh ko'tarib, Temurni kutardi. Yoyiq daryosidan o'tib tezlik bilan xon qarorgohiga yetib kelgan Sohibqiron To'xtamishni sarosimaga soldi. Natijada xon pistirmada qoldi va qochib ketishga majbur bo'ldi. Sohibqiron Volga daryosigacha yetib borib, Moskva yaqinidagi Yelets shahrini egalladi. To'xtamishxon Xarkov shahrida Litva knyazi bilan 1393-yilda ittifoq tuzadi va yorliq chiqaradi. 1395-yilda Amir Temur To'xtamish fitnasiga butunlay barham berish uchun Darbanddan Elburs tog'i etaklariga yetib keldi. Amir Temur Terek daryosidan o'tib Julat degan joyga (Janubiy Osetiya) ga yetib bordi. 15-aprel kuni ikki qo'shin ham harakatga tushdi va odatdagidek piyoda qo'shin suvoriy qo'shin oldida borar edi. Lekin jang To'xtamishxonning qochishi bilan tugadi, Temur g'alaba sharafiga o'z qo'shiniga 100ming kepekiy dinor, sovg'a-salom tarqatdi<sup>53</sup>. Oltin O'rdaning mag'lubiyati natijasida Don daryosining yuqori oqimigacha bo'lgan hududlar Temuriylar tarkibiga o'tdi. Amir Temurning harbiy mahorati shundaki, u dushmanlarini birlashishga qo'ymasdi va yakka-yakka mag'lub etardi. Shundan so'ng To'xtamishxon o'z hokimiyatini tiklay olmadi va 1408-yilda o'ldirildi. Amir Temur bu zafarli urush natijasida janubiy Rus knyazliklarini o'ziga tobe qilib, mamalakat sarhadlarini shimoliy hududlar hisobiga boyitdi.

Xulosa qilib aytganda, o'z tarixini, nasl-nasabini, merosini bilmagan millatning kelajagi bo'lmaydi. Chunki har bir xalqning o'z tarixi mavjud. O'z tarixini bilmagan, uning ijobiy va salbiy tajribalarini o'rganib, tegishli xulosalar chiqarmagan xalq bugungi hayotning qadrini va muammolarini tushunib yeta olmaydi, o'z kelajagi haqida aniq tasavvurga, puxta ishlangan dasturga ega bo'la olmaydi. Biz kelajagi buyuk O'zbekistonni barpo etishga kirishgan ekanmiz, bobokalonimizning ulug' hayoti va faoliyati bizga katta ishonch, intilish, qatiyat va kuch-quvvat baxsh etadi. Ikkinchidan, Amir Temur va temuriylar tarixini har tomonlama chuqur o'rganish faqat ilmiy va ma'rifiy ahamiyat kasb etib qolmasdan, tarbiyaviy va amaliy ahamiyatga ham egadir. Bu davrda shakllangan va rivojlangan tarix saboqlaridan mustaqillik yo'lida foydalanish zarur. Tarix har bir insonni o'z vataniga muhabbat, sadoqat, o'z xalqining o'tmishi haqida aniq tasavvurga ega bo'lish, uning hozirgi kuni va kelajagi bilan g'ururlanish ruhida tarbiyalashning muhim vositalaridan biridir. Shu boisdan Amir Temur va temuriylar davri tarixini o'rganish va tahlil qilish hozirgi kunda ham o'z ahamiyatini yo'qotmagan. Shuningdek, Amir Temur o'z dushmanlariga ham shavqatli bo'lganini To'xtamishxon misolida tahlil qildik.

**FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR :**

- 1)Mo'minov Ibrohim. Amir Temurning O'rta Osiyo tarixida tutgan o'rni va roli. T., Fan, 1993.
- 2)Nizomiddin Shomiy. Zafarnoma. (Forschadan Alixon Sog'uniy va Xabibullo Karomatov tarjimasi) Tosh., G'afur G'ulom nomidagi nashriyot va matbaa birlashmasi, 1991.
- 3)Mahkam Abduraimov. Temur va To'xtamish, T.: G'afur G'ulom nomidagi Adabiyot va san'at, 2000,
- 4)Xayrullayeva. M. M. O'zbek diplomatiyasi tarixidan. Toshkent – 2003.
- 5)Nizomiddin Shomiy. Zafarnoma. (Forschadan Alixon Sog'uniy va Xabibullo Karomatov tarjimasi) Tosh., G'afur G'ulom nomidagi nashriyot va matbaa birlashmasi, 1991.
- 6)Mahkam Abduraimov. Temur va To'xtamish, T.: G'afur G'ulom nomidagi Adabiyot va san'at, 2000

## FIZIKA FANINI O'QITISHDA TA'LIM PRINSIPLARINING AHAMIYATINING DOLZARB MASALALARI

**Safarova Muqaddas Giyasovna**

*Sergeli tumani 267-maktab fizika fan o'qituvchisi*

**Annotatsiya:** *Maqolada Oliy texnika ta'lim muassasalari bakalavr bosqichida fizika fanini o'qitish jarayonida ta'lim prinsiplaridan foydalanish masalalari muhokama etilgan. Ta'lim prinsiplaridan foydalanish talabalarning fizika fani bo'yicha oladigan bilimlarining mukammal bo'lishi, olgan nazariy bilimlarini amalda qo'llay bilish ko'nikmalariga ega bo'lishi, amaliy faoliyatida uchrashi mumkin bo'lgan muammolarni mustaqil hal qilish qobiliyatiga ega bo'lish imkonini beradi.*

**Kalit so'zlar:** *ta'lim prinsiplari, ilmiylik prinsipi, mustaqillik prinsipi, faollik prinsipi, ko'rgazmalik prinsipi, tizimlilik prinsipi.*

**Abstract:** *The article discusses the issue of using educational principles in the process of teaching physics at the undergraduate level of higher technical institutions. The use of educational principles allows students to have a perfect knowledge of physics, the ability to apply theoretical knowledge in practice, the ability to independently solve problems that may occur in practice.*

**Keywords:** *principles of education, principle of science, principle of independence, principle of activity, principle of demonstration, principle of structure.*

### KIRISH

Ta'lim jarayonida ta'lim prinsiplariga e'tibor bermaslik ularni bilmaslik yoki noto'g'ri tushunish, ularning talablariga amal qilmaslik ta'lim jarayoni ilmiyligini ta'minlash, samaradorligini oshirish imkonini bermaydi. Ta'lim prinsiplariga amal qilish ta'lim jarayoni samaradorligining muhim sharti bo'lib, o'qituvchi pedagogik madaniyatining ko'rsatkichi hisoblanadi. Ta'lim prinsiplari tizimi ta'lim jarayoni qonuniyatlarini ifodalaydi va tarbiya maqsadlari bilan belgilanadi. Shunga ko'ra, ta'lim prinsiplari ta'lim jarayonining eng muhim masalalarini nazariy va amaliy jihatdan to'g'ri hal kilishning asosiy negizi hisoblanadi. Ta'lim muassasalarida fizika fanini o'qitishda ta'lim prinsiplarini e'tiborga olish muhim ahamiyatga ega.

### ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA

Ta'lim jarayonida uning prinsiplaridan oqilona foydalanish ta'lim sifatini belgilashning muhim omillaridan biri hisoblanadi. Didaktika prinsiplarini ifodalab, ta'riflab va asoslab berish masalalariga ko'plab ishlar bag'ishlangan. Klassik pedagogika asoschilari Yan Amos Komenskiy, J.J.Russo, CH.R.Pestalotssi, Vilgelm Disterverg, K.D.Ushinskiy va boshqalar o'z asarlarida ta'lim prinsiplarini ta'riflab va asoslab bergan edilar. Keyingi o'n yilliklarda ta'lim prinsiplarini ta'riflash va ularga qo'shimchalar kiritish masalalari Y.K.Babanskiy,